

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

SURXONDARYO VILOYATI FLORASI TARKIBIDAGI SHUVOQ (ARTEMISIA) TURKUM TURLARINING ZAMONAVIY TAHLILI

Abdunazarov Mahmud Abduhalim o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

maxmudabdunazarov41@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shuvoq (*Artemisia*) turkumining Surxondaryo viloyati hududida tarqalgan o'simliklar ichida tutgan o'rni hamda Shuvoq turkumining bir-biridan foydali bo'lgan turlarining tuzilishi, fiziologik yashash sharoitlari, kimyoviy tarkibi va dorivorlik xususiyatlari hamda ulardan foydalanish usullari haqida batafsil ma'lumot berib o'tildi.

Kalit so'zlar: Shuvoq, Sivers shuvog'i, Sug'd shuvog'i, Oq Shuvoq, Turon shuvog'i, Yovshan shuvoq, silutoksin, anabintin, absintin, flavonoidlar, fitontsidlar, taninlar, antigelmintik, antiseptik, yallig'lanish, skrofula, sil.

Annotation: In this article, detailed information about the structure, physiological living conditions, chemical composition and medicinal properties of each other b'lgan species of Wormwood (*Artemisia*), as well as the methods of their use, which captured species of Wormwood (*Artemisia*) within the range of the Surkhandarya region.

Keywords: Wormwood, Sivers Wormwood, Sugd Wormwood, White Wormwood, Turon Wormwood, Yovshan Wormwood, silutoxin, anabintin, absintin, flavonoids, phytoncides, tannins, antihelminthic, antiseptic, inflammatory, scrofula, tuberculosis.

Аннотация: В данной статье дана подробная информация о содержании видов рода полынь (*Artemisia*) в растениях, распространенных на территории Сурхандарьинской области, а также о структуре, физиологических условиях обитания, химическом составе и лечебных свойствах видов рода полыни, а также о способах их использования.

Ключевые слова: Полынь, Полынь Сиверса, полынь Согда, полынь белая, полынь Турана, полынь Полынная, Силутоксин, Анабинтин, абсентин, флавоноиды, фитонциды, дубильные вещества, глистогонное средство, антисептическое средство, воспаление, золотуха, туберкулез.

Kirish. Shuvoq turkumi (*Artemisiae*) – Qoqio‘tdoshlar (*Asteraceae*) oilasining Qoqio‘tdoshchalar (*Asterideae*) oilachasiga mansub turkum hisoblanadi. Shuvoq turkumiga mansub o'simliklar asosan xalq xo'jaligining chorvachilik tarmog'ida o'ziga xos o'rin egallaydi. Lotin tilida shuvoq “*Artemisia*” deb nomlanishiga sabab o'simliklarning ko'plab shifobaxsh xususiyatlarini kashf etgan taniqli ma'buda Artemis sharafiga shunday nomlashgan. O'zbekistonda shuvoq turkumining 39 turi uchraydi. Bular bir yillik, ko'p yillik o'tlar va chala butalarni tashkil etadi.

Barglari oddiy, uchga bo'lingan yoki patsimon bo'lingan. Barg bo'laklari ingichka — ipsimon. Bu turkum vakillari orasida tog'larda, adirlarda, cho'llarda, to'qaylarda o'sadigan va hatto begona o'tlar qatori yo'l yoqalarida, ariq bo'ylarida, marzalarda o'sadigan turlar ham mavjud.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Surxondaryo viloyatida asosan bir yillik oddiy Shuvoq (Burgan), ko‘p yillik Shuvoq (Ola ermon), achchiq Shuvoq (Ermon), Sivers shuvog‘i (Sassiq alaf), Sug‘d shuvog‘i, Oq Shuvoq, Turon shuvog‘i (Qora jusan), Yovshan shuvoq kabi turlari va boshqalar uchraydi.

Bir yillik Shuvoq (xalq tilida “Burgan” nomi bilan mashhur) poyasi tik, yuqori qismi sershox, bo‘yi 30-100 sm, ildiz qismi yo‘g‘on yog‘ochsimon. Barglari ketma-ket joylashgan, bandli patsimon qirqilgan. Poya va barglari tukli, kumush rangda bo‘ladi. Gullari mayda, sariq yoki qizg‘ish-pushti, ro‘vaksimon to‘pguli savatchaga o‘rnashgan. Mevasi mayda pista meva. Iyul-avgust oylarida gullab, meva beradi. Bir tup shuvoqda 100 mingdan ortiq urug‘ hosil bo‘ladi. Urug‘i va ildizpoyasi orqali ko‘payadi.

Oddiy Shuvoq (Ola ermon) poyasi tik o‘sovchi ko‘p yillik o‘t o‘simlik hisoblanadi. Poyasi sershox, yuqori qismi tukli bo‘lib, bo‘yi 50-200 sm, barglari patsimon qirqilgan, yuqori barglari bandsiz, pastdagilari bandli bo‘ladi. Gullari ro‘vaksimon, to‘pguli savatchaga to‘plangan. Mevasi pistameva sug‘oriladigan dehqonchilik mintaqalarida begona o‘t sifatida uchraydi, shuningdek, ariq va yo‘l chetlarida, bog‘, tokzorlarda o‘sadi.

Ermon (*A. Absinthium*) — eng qadimgi dorivor o‘simliklardan biri va “Absinte” deb ataladigan ichimlikning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu o‘simlik xalq orasida “beva ayolning o‘ti” deb ham ataladi. Ermon – Ildizi o‘qildiz tizimli ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Poyasi kumushrang tik o‘sovchi poya, mayda tuklar bilan qoplangan, yer ostidagi kurtaklaridan mart-may oylarida unib chiqadi, kuzga borib nihollari qishlaydi. Bo‘yi 60-120 sm, shoxlangan, barglari patsimon qirqilgan, yoshi katta o‘simliklarda barglar ketma-ket joylashgan. Gullari sariq, naysimon gullarga ega. Iyun-sentabr oylarida gullab, oktabr oyida mevasi pishib yetiladi. Urug‘i teskari tuxumsimon urug‘cha.

Surxondaryoning cho‘l mintaqalarida, tog‘ yonbag‘irlarida, adirlar va yo‘l yoqalarida o‘sadi. Poyasi va barglari efir moyi, S va K vitaminlari, karotin, achchiq glikozidlar, oshlovchi va boshqa moddalarga juda boy hisoblanadi. Preparatlari ovqat hazm qiluvchi, ishtaha ochuvchi, o‘t haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Achchiq shuvoq yo‘llar bo‘ylab, turar joylar yaqinida, o‘tloqlarda va sabzavot bog‘larida, dala chegaralarida o‘sadi. Ermonni och tusli va tipik bo‘z tuproqlarda ekib o‘stirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ermon shuvog‘ining xususiyatlari. Qadimgi Slavyanlar orasida shuvoq ruhiy va jismoniy dunyoni tozalash qobiliyatiga ega kalit o‘simlik deb hisoblangan. Yogist va Buddistlar shuvoqning efir moyini meditatsiyada diqqatni jamlashga yordam beradigan eng yaxshi usullardan biri sifatida ishlatib kelishgan. Ko‘p odamlar hanuzga qadar shuvoqning xushbo‘y hidi yovuz ruhlarni qo‘rqitadi, yomon ko‘zdan va zararlardan saqlaydi deb ishonishadi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Sivers shuvog‘i (Sassiq alaf) — Surxondaryo viloyatining daryo bo‘ylari va botqoqliklarda tarqalgan bo‘lib, o‘simlikning hamma qismi zaharli. Faqat ildizi shirin, xushbo‘y hidga ega. U o‘zida *silutoksin* degan zaharli modda saqlaydi. Agar biror kishi bu o‘simlikdan zaharlansa, uning boshi og‘riydi, ko‘ngil aynish kuzatiladi, shilliq qavatlarda ko‘karish, tonik talvasalar kuzatiladi. Bu o‘simlikning zahari uzunchoq miya markazlariga ta‘sir ko‘rsatadi. Zaharlanish ko‘p hollarda o‘lim bilan tugaydi.

Yovshan, oq jo‘san (*Artemisia diffusa* N. Krasch) — sershox chala buta. Bo‘yi 25-45 sm, qalin tuklar bilan qoplangan. Bargi ipsimon bo‘laklarga bo‘lingan. To‘pguli ro‘vaksimon savatcha. Gullari mayda, sariq, ikki jinsli. Cho‘llarda va ba‘zan adirlarda o‘sadi. Fevralning ikkinchi yarmidan barg chiqaradi, iyul va avgust oylarida o‘shidan to‘xtab, barglari to‘kiladi (Ayni yoz vaqtida suvsizlik va quruq iqlim sharoitida tinim davrini boshidan kechirish hodisasi). Sentyabrdan yana ko‘karib gullaydi, noyabrda urug‘i pishadi va sovuq urguncha yashil barglari saqlanib turadi.

O‘tloqlarda asosiy oziqbop o‘simlik hisoblanadi. Bir yillik novdalari tarkibida oqsil, yog‘, kletchatka, 43,1% azotsiz ekstrakt moddalar, umuman, yer usti qismida 0,81—1,25% efir moyi bor. Yovshan shuvog‘ini chorva mollari qishda va bahorda xush ko‘rib istemol qilishadi.

Dorivor shuvoq o‘simligidan foydalanish texnologiyasi.

Dorivor xomashyo gullash davrida yig‘ib olinadi, faqat bargli va o‘t qismlari kesib olinadi. O‘tning o‘z vaqtida yig‘ish juda muhim, chunki kechikish quritish paytida o‘tlar tarkibini buzilishiga olib keladi. O‘simlik chodirda yoki soyada quritiladi, uni nozik bir qatlam qilib yoyib, vaqti-vaqti bilan aylantiriladi. To‘g‘ri quritilganda, shuvoq aromatik, o‘tkir hid va o‘tkir achchiq ta‘mga ega bo‘ladi. Yig‘ish – Dorivorlik xususiyatlariga ko‘ra o‘simlikning o‘tlari ham, barglari ham ishlatiladi. Bargli xomashyoni yig‘ish shuvoqning gullash boshlanishidan oldin, ya‘ni yozning boshida amalga oshiriladi. Barglarni yig‘ishda ular bandsiz kesiladi.

O‘tlarni yig‘ishda ehtiyot bo‘lish lozim, chunki shuvoq kuchli ta‘sirga ega o‘simlik hisoblanadi. Shuvoq o‘tlarini yig‘ish o‘simlikning gullash davrida amalga oshiriladi, o‘simlikning yuqori qismi o‘roq yoki pichoq bilan kesib olish maqsadga muvofiq. O‘rim-yig‘imda gullaydigan poyalari va barglari ishlatiladi. Kesish tepadan taxminan yigirma besh santimetr masofada amalga oshiriladi.

Agar xomashyoni yig‘ish ko‘rsatilgan muddatlarda amalga oshirilmasa, quritgandan keyin o‘t rangini quyruq kul rangga o‘zgartiradi va gullash o‘qi jigarrang bo‘lib, tezda tarkibi parchalanadi.

Tayyorlangan xomashyoni quritish soyabon ostida yoki yaxshi gazlangan chodirda amalga oshiriladi. O‘t juda qalin bo‘lmagan qatlamda (yetti santimetr gacha) mato yoki qog‘ozga yoyilgan holda quritiladi. O‘tlarni quritish quritgichlarda 50°C dan yuqori bo‘lmagan haroratda amalga oshirilishi mumkin.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Quritishda harorati yuqoriroq bo'lsa, u holda shuvoqni tashkil etuvchi barcha efir moylari oddiygina bug'lanib sifatsiz holga kelib qoladi. Shuning uchun ko'rsatmalarga amal qilish lozim.

Tayyor xomashyoni saqlash kanvas qoplarda yoki qog'oz qoplarda amalga oshiriladi. Yig'ilgan o't ikki yil davomida ishlatilishi mumkin. Dorivorlik xususiyatlari: Shuvoqning achchiq ta'mi uning tarkibidagi **anabintin** va **absintin** kabi achchiq glikozidlarga bog'liq. Shuvoq tarkibida efir **moylari, organik kislotalar, jumladan, askorbin kislota, K va B6 vitaminlari, flavonoidlar, karotin** ham mavjud. Shuvoq tarkibida oz miqdorda **fitontsidlar va taninlar** ham topilgan. Ko'pgina qadimgi tabiblar bu o'simlikni yaxshi bilishgan va u turli xil kasalliklarni davolashda keng qo'llanilgan.

Ammo zamonaviy tadqiqotlar tufayli shuvoqning haqiqiy shifobaxshlik xususiyatlari ochib berildi. Shuvoqning mo'jizaviy shifobaxshlik kuchi haligacha bizga ma'lum, u boshqa dorivor o'tlar bilan birgalikda va uning sof shaklida qo'llanilib kelinmoqda.

Shuvoqga asoslangan preparatlar insonning ovqat hazm qilish tizimiga ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ishtahani ochadi, oshqozon-ichak harakatini yaxshilaydi. Bundan tashqari, shuvoq mukammal **antigelmintik, antiseptik, yallig'lanishga qarshi, antikonvulsiv** va yaraga qarshi xususiyatlarga ega. Shuningdek, shuvoq butun organizmga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, metabolik jarayonlarni faollashtiradi, shuvoqning tarkibiy qismlarining **o'smaga qarshi va diabetga qarshi** faolligi ham aniqlangan. Retseptlari – An'anaviy tabiblar ko'pincha shuvoqdan **skrofula, sil, tomchilar, siydik pufagi kasalliklari, buyrak yallig'lanishi, tomchilar, gemoroid** kabi kasalliklarni davolash uchun foydalanadilar.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

8) Botanika. (o‘quv Qo‘llanma). -T.: «Fan Va Texnologiya», 2018,300 Bet. Isbn 978-9943-11-853-9

9) Мустафаев С.М. 91 Ботаника: (Анатомия, Морфология, Систематика): Олий Укув Юртларининг Талабалари Учун Дарслик.— Т.: Узбекистан, 2002. — 472 Б.

10) Tursunboeva Gutbahorsukanovna, Komik>Va Shoini Rafiqovna Botanika asoslari (o‘quv Qo‘llanma)

11) O‘.Pratov, L.Shamsuvaliyeva, E.Sulaymonov, X. Axunov, K.Ibodov, V. Mahmudov Botanika (Morfologiya, Anatomiya, Sistematika, Geobotanika)

12) С. Mustafayev, o‘.A. Ahmedov, M.S. Mustafayeva, M.T. Yulchiyeva Botanika «Tafakkur-Bo‘stoni» Toshkent - 2012

13) М. И. Икромов, Х. Н. Нормуродов, А. С. Юлдашев Ботаника Ўсимликлар Морфологияси Ва Анатомиyasi Тошкент «Ўзбекистон» 2002

Internet ma‘lumotlari:

1. <https://unilibrary.uz/>
2. <https://shifo.uz/article/achchiq-shuvoq-ermon>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/dorivor-achchiq-shuvoq-o-simligining-shifobaxshlik-xususiyatlari-va-undan-oqilona-foydalanish>
4. <https://apteka.uz/uz/offer/gelrem-kapsuly>
5. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/manaviat/4828.htm>
6. <http://www.hozir.org/6-sinf-botanika-7-dars-gul.html?page=57>
7. <https://uz.khanacademy.org/teacher/dashboard>